

**Sana:19-fevral.**

**Fan: Tarix.**

**Sinf: 5-“A”**

**Mavzu:** Jaloliddin Manguberdi

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** O‘quvchilarga mo‘g‘ul bosqinchilari, ularga qarshi kurashgan xalq qahramonlari haqida bilim berish.

**Tarbiyaviy:** O‘quvchilarni Jaloliddin Manguberdidek sheryurak, vataniga sadoqatli, irodali insonlar qilib tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish.

**Kutilayotgan natija:** O‘quvchilar tinchlik eng muqaddas ne‘mat ekanligini, yurt uchun jonini fido qilgan insonlar hech qachon unutilmasligini tushunadilar.

**Dars turi:** Yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi.

**Dars usuli:** Suhbat, hikoya, savol-javob, guruhlarda ishlash.

**Dars jihozi:** Darslik, «Rasmlarda Vatan tarixi», O‘zbekiston Respublikasi siyosiy xaritasi, tarqatma materiallar, Ma’naviyat yulduzlari, mavzuga oid rasmlar, bukletlar va referatlar. I. Karimov. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.”

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism.** Sinfda ishchi muhiti vujudga keltiriladi. Sinf o‘quvchilari uch guruhga bo‘linadi.

**II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.** Jadvalli testlar orqali o‘tilgan mavzu mustahkamlanadi.

**1. Quyidagi tarixiy shaxslar va ularga berilgan ta’rifni bir- biri bilan muvofiq joylashtiring.**

1.	Shiroq	A	Aleksandr Makedonskiyga qarshi kurashgan.
2.	Muqanna	B	Temuriy shahzoda, buyuk astronom olim.
3.	To‘maris	C	Oqkiyimlilar yo‘lboshchisi.
4.	Ulug‘bek.	D	Massagetlar malikasi.
5.	Spitamen.	E	DoroIga qarshi kurashgan.

1-E, 2-C, 3-D, 4-B, 5-A.

**2. Quyidagi atamalarni ularning izohi bilan to‘g‘ri joylashtiring.**

1.	Jadid	A	Osmon jismlarini kuzatuvchi asbob.
2.	Akademiya	B	Oydagi chuqurlik.
3.	Teleskop	C	Osmon jismlarini o‘rganish uchun joy.
4.	Krater	D	Yangilik uchun kurashuvchi.
5.	Rasadxona	E	Mashhur olmlar to‘plangan ilm-fan markazi.

1-D, 2-E, 3-A, 4-B, 5-C.

### 3.Quyidagi voqealarni ularning sanasi bilan to'g'ri joylash- tiring.

1	1-xalqaro olimpiada o'tkazildi	A	1896-yil
2	Yurtimizda arablar hukmronligi o'rnatildi	B	1004-yil
3	Aleksandr Makedonskiy yurtimizga bostirib kirdi	C	769-yil
4	Dorul hikma va maorif tashkil etildi	D	715-yil
5	Oq kiyimlilar qo'zg'oloni boshlandi	E	Mil. av.329-yil.

1-A, 2-D, 3-E, 4-B, 5-C.

### III. Yangi mavzuni tushuntirish.

#### Mavzu quyidagi reja asosida izohlanadi.

- 1.Mo'g'ullarga qarshi mardonavor kurash.
- 2.Jaloliddin Manguberdi jasur va mohir sarkarda.
- 3.Hal qiluvchi jang.
- 4.Mangu barhayot.

#### Asosiy tushunchalar:

- 1Mo'g'ullar davlati.
- 2.Xorazmshohlar davlati.
- 3.Jaloliddin Manguberdi.
- 4.Temuchin-Chingizxon.
- 5.Valiyon.
- 6.Parvon.
- 7.Sind.

#### Tarixiy sanalar:

1.1206-yil.

3.1198-1231-yil.

5.1231-yil

2.1219-yil.

4.1221-yil.

6. 1999-yil.

O'qituvchi o'quvchilar fikrini tinglagandan so'ng, mavzuning tayanch tushunchalari va tarixiy sanalariga o'quvchilar e'tiborini qaratadi, yangi darsni «Rasmlarda Vatan tarixi» lavhalaridan foydalanib ma'ruza-suhbat o'tkazadi. I.Karimovning „Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.“ asaridagi mavzuga oid fikrlar dan o'quvchilar xabardor qilinadi.

Qo'shimcha ma'lumotlar o'qib eshittiriladi.

#### Qo'shimcha ma'lumot

##### Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad (1198-1231)

Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori, mohir sarkarda. Anushteginiylardan. Xorazmshohlardan Muhammadning katta o'g'li. Onasi - Oychechak turkman kanizaklaridan bo'lgan. Jaloliddin bumida holi (mank) bo'lgani uchun Mankbumi nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o'zgarib "Manguberdi nomi bilan mashhur bo'lib ketgan. Jaloliddin voyaga yetgach, otasi uni G'azna, Bomiyon, G'ur, Bust, Takinobod, Zamindovar va Hindiston hududlarigacha bo'lgan yerlarda hokim va taxt vorisi etib tayinlagan (1215). Biroq Turkon xotun va qipchoq amirlarining qat'iy noroziligi sababli

Qutbiddin O'zloqshoh foydasiga vorislikdan mahrum etilgan. Jaloliddin otasining harbiy yurishlarida ishtirok etib, o'zining jasur jangchi, iqtidorli sarkardalik qobiliyatlarini namoyish etgan (qadimgi Irg'is daryosi bo'yidagi jang).

Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlari Movarounnahrda bostirib kirib birin-ketin shaharlarni egallab, Samarqandga yaqinlashganlarida xorazmshoh Muhammad Kaspiy dengizi bo'yida joylashgan Obeskun shahri yaqinidagi Ashur ada orolidan panohtopgan. Og'ir bemor bo'lgan Muhammad o'g'illarini yoniga chorlab, so'nggi damda Jaloliddinni o'z o'miga xorazmshoh etib tayinlagan. Jaloliddin Manguberdi ukalari Oqshoh va Qutbiddin O'zloqshohlar bilan birga Urganch mudofaasiga oshiqadi. Lekin Urganchdagi qipchoq amirlari Turkon xotunning akasi Xumorteginni sulton deb e'lon qilib, Jaloliddin Manguberdiga qarshi suiqasd uyushtirmoqchi bo'ldilar. Bundan xabar topgan Jaloliddin Manguberdi Temur Malik boshchiligidagi 300 kishilik suvoriylar bilan o'z vatani - Xorazmni tashlab Xurosonga ketishga majbur bo'ladi.

#### **IV. O'quvchilar bilimini tekshirish.**

1. **usul.** Avvaldan tayyorlab qo'yilgan quyidagi testlar o'quvchilarga tarqatiladi.

1. Mo'g'ullar hujumi arafasida Xorazmshohlar davlatida...

A. Alouddin Muhammad davlat hukmdori edi

B. Mamlakat siyosiy inqirozga yuz tutgan bo'lsa ham, aholining katta qismi Xorazmshohni qo'llab-quvvatlar edi.

C. Jaloliddin boshliq amirlar Xorazmshohga qarshi fitna yurishtirib, uni o'ldirmoqchi edilar.

D. Mamlakat tanazzul yoqasida edi.

2. Mo'g'ullar bosqini arafasida Movarounnahrda qanday davlat mavjud edi?

A. Tohiriylar.

B. Somoniylar.

C. Xorazmshohlar.

D. Qoraxoniylar.

3. Chingizxon qayerda hukmronlik qilardi?

A. Mo'g'ulistonida.

B. Afg'onistonida.

C. Eronda.

D. Xitoyning shimolida.

Mo'g'ullarning xo'jalik va madaniy darajasi ular bosib olgan xalqlarnikiga qaraganda past edi. Nima uchun mo'g'ullar O'rta Osiyoni bosib oldilar?

A. Mo'g'ullar ko'p sonli bo'lib, yangi qurolga ega edilar.

B. Istilochilar tepasida Chingizxon va tajribali sarkardalar turardi.

C. Iqtisodiy jihatdan Xorazm zaif edi.

5. Parvon dashtidagi jangda kim g'alaba qozondi?

A. Chingizxonning o'g'li Gulixan.

B. Jaloliddin Manguberdi.

C. Temur Amir.

D. Chingizxon.

6.«Sind» daryosi bo‘yidagi jangda Jaloliddin Manguberdi mislsiz qahramonlik ko‘rsatdi. Chingizxon uning jang mahoratiga qoyil qolib shunday dedi...

A.Dahshatli yov.

B.Unga hech kim teng kelmaydi.

C. «Ota o‘g‘il mana shunday bo‘lishi lozim».

D. Qahramonlar unitilmaydi.

7.Qachon Jaloliddin Manguberdiga haykal o‘rnatildi?

A.1991-yil, 5-sentabrda.

B.1996-yil, 23-oktabrda.

C. 1998-yil, 25-oktabrda.

D.1999-yil,5-noyabrda.

8.«Yo vatan, yo sharaflı o‘lim» so‘zlari kimga tegishli?

A. Chingizxon

B. Najmiddin Kubro

C.Jaloliddin Manguberdi

D. Alouddin Muhammad

### **2-usul.**

Quyidagi atamalar va sanalar yozilgan kartochkalar o‘quvchilarga tarqatiladi.

#### **1-kartochka:**

1.1206-yil, 1219-yil.

2.Temuchin-Chingizxon.

#### **2--kartochka:**

1.1198-1231-yillar;

2.Xorazmshoh, Jaloliddin Manguberdi

#### **3- kartochka:**

1.1221-yil,1231-yil.

2. Sind daryosi; Parvon, Valiyon

#### **V. O‘quvchilar bilimni baholash.**

O‘qituvchi test natijalarini va kartochkalar javoblarini umumlashtirib, o‘quvchilarni baholaydi, rag‘batlantiradi.

#### **VI. Uyga vazifa.**

Darslikning 112-betidagi jadvalni to‘ldirish

«Amir Temur jasorati va uning davlati» mavzusi bilan tanishib kelish.